




A laptop is shown in the foreground, displaying a dashboard with various charts and data. The dashboard includes a navigation menu on the left, a top section with several data points (2500, 1.51 Sec, 2,500, 4,567, 2,315, 7,325), and a large area with multiple line charts. The background is a blurred office setting.

2021- yil yanvar-iyul oylarida Samarqand viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 523,0** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **2 235,0** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **119,3** % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyul oylarida)



2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyul oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	9 523,0	119,3
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	458,5	115,3
Moliyaviy xizmatlar	1 444,1	120,1
Transport xizmatlari	2 267,0	117,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 139,5	115,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	292,0	112,8
Savdo xizmatlari	2 668,4	109,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	236,3	128,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	520,6	161,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	181,4	144,1
Ijara xizmatlari	311,1	130,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	263,8	128,4
Shaxsiy xizmatlar	414,7	123,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	253,2	145,0
Boshqa xizmatlar	211,9	116,2

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **28,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da




2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda – **23,8 %**.

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)



2021- yil yanvar-iyul oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **94,4 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi 95,9 % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar





Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-iyul

2021- y. yanvar-iyul



Yo'lovchi tashish



Yuk tashish

2021- yil yanvar-iyul oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **73,8** % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **71,3** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-iyul oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **28,0 %** ni tashkil etib, bu esa **2 668,4** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **2 169,7** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **29,8 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



2021- yil yanvar-iyul


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **76,0 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **75,5 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-iyul oylarida)

2021- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 444,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **1 167,0** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **15,2** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **16,0** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **277,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **20,1** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ularning o'sish sur'ati **135,1** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul


Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,4 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,5 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **3,1 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)



Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy
faoliyat

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **91,2 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,0 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **4,8 %**.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)

2021- yilning yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **458,5** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **115,3 %** ni tashkil etgan.


Taqqoslash uchun:

2020- yil yanvar-iyul oylarida ushbu xizmat turi hajmi **391,6** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **5,4 %** iga teng bo'lgan. O'sish sur'ati esa **108,6 %** ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Jami hajmdagi ulushi

Xizmatlar hajmi

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish – uzluksiz **ta'lim tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **520,6** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **5,5 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **161,7 %** ni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyul oylarida xizmatlar hajmi **309,1** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan shu xizmat turida o'sish **18,3 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-iyul


Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **60,9** mlrd. so'mga ortgan.


2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-iyul

Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2020- y. yanvar-iyul

2021- yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **92,7 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **89,5 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
Yanvar-iyul



2020- y.
Yanvar-iyul



2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

2 401,7
ming so'm

Hajmning
o'sishi

529,8
ming so'mga

2021- yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 401,7** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **117,1** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1 871,9** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **96,9** % da qayd etilgan.



117,1 %

O'sish sur'ati